

# **Uzbekistan Airways biznes aviatsiyasining 2022-yil yakunlari**

**2023 17 Yanvar**

Uzbekistan Airways so'nggi ikki yil ichida jadal rivojlanayotgan segment – biznes aviatsiyasini yo'lga qo'ygan holda yo'lovchi tashish sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirdi. Yo'lovchilar tomonidan individual va shaxsiy aviaqatnovlarga bo'lgan talab ortib borayotganini hisobga olgan holda, aviakompaniya ushbu kichik aviatsiyaga 2021-yildan kirib kelgan va shu kungacha O'zbekiston Respublikasida biznes aviatsiyasini rivojlantirishga faol hissa qo'shmaqda.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi "Pilatus PC-24" biznes-jetini yo'lga kiritgach, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi va qo'shni davlatlar aholisi hamda ishbilarmon doira vakillarining talabini qondirish maqsadida ushbu havo kemasidan Respublikamiz, shuningdek, undan tashqarida faol ekspluatatsiya qilishni muvaffaqiyatli boshladi.

2022-yilda "Uzbekistan Airways" AJ "Pilatus PC-24" havo kemasida Ostona, Olmaota, Dushanbe, Ashxobod, O'sh, Bishkek, Islomobod, Xo'jand, Baku, Issiqko'l va O'zbekistonning faoliyat yuritayotgan barcha aeroportlari bo'ylab 100 dan ortiq yo'lovchi charter reyslarni amalga oshirdi.

Eslatib o'tamiz, Pilatus PC-24 qulay parvoz uchun mo'ljallangan Shveytsariya reaktiv samolyoti bo'lib, 2500 kmgacha bo'lgan masofada 8 tagacha yo'lovchi uchun mo'ljallangan.